

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

application of knowledge in the digital economy.....	360
Z.F.Kasimova	
Beshik to'yi marosimi folklorining o'rganilishiga doir.....	366
M.Y.Mamadjonov, F.A.Bekmuxamedova	
“Mehmon” so'zining o'zbek va ingliz maqollarida ijobiy hamda salbiy ma'noda qo'llanilishi	369
S.A.Mahmudova	
Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarda ijtimoiy-kreativ kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik masalalari.....	373
S.J.Saidmuradova, X.Xolmurodova	
Milliy xarakter va badiiy psixologizm.....	378
G.I.Yuldasheva	
Kompyuter modellarini o'quv jarayonlarida qo'llash tamoyillari.....	383
M.M.Кахарова, З.М.Дадахонова	
Цели и принципы контроля в образовательном процессе	389
A.R.Saydullayeva	
Gender yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni tayyorlash tizimini takomillashtirish zarurati va istiqbollari	393
T.Akhmedova	
The impact of games on the development of pre-school children.....	398
U.Sh.Abduraximova	
Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mazmuni.....	402
J.Q.Mirzajonov	
Bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish zarurati va pedagogik imkoniyatlari.....	406



UO'K: 81'282.2:811.111(575.1)

“MEHMON” SO‘ZINING O‘ZBEK VA INGLIZ MAQOLLARIDA IJOBIY HAMDA SALBIY MA‘NODA QO‘LLANILISHI**ПОЛОЖИТЕЛЬНОЕ И НЕГАТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СЛОВА «ГОСТЬ» В УЗБЕКСКИХ И АНГЛИЙСКИХ ПОСЛОВИЯХ****POSITIVE AND NEGATIVE USAGE OF THE WORD "GUEST" IN UZBEK AND ENGLISH PROVERBS****Mamadjonov Muxammadjon Yusubjonovich¹**¹Farg‘ona davlat universiteti filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**Bekmuxamedova Feruzabonu Anvarovna²**²Farg‘ona davlat universiteti magistranti, Lingvistika(ingliz tili)**Annotatsiya**

Bu maqola "mehmon" so'zining o'zbek va ingliz maqollarida ijobiy va salbiy ma'nodagi foydalanishini va mehmondo'stlikning xalqimizdagi ahamiyatini tahlil qiladi. Maqola mehmonlikning jamiyatimizda o'ziga xos mazmuni, odob-axloq va ma'naviyatni aks ettirishini o'rganishga oid ma'lumotlar va misollar bilan ta'minlangan. Metin mehmondo'stlar odobi, tarkibi, an'analari va ularning qabul qilinishi masalalarini o'z ichiga oladi.

Аннотация

В данной статье анализируется положительное и отрицательное употребление слова «гость» в узбекских и английских пословицах, а также значение гостеприимства в нашем народе. В статье представлена информация и примеры того, как гостеприимство отражает уникальный смысл, нравы и духовность нашего общества. В тексте освещаются нравы, состав, традиции и прием гостей.

Abstract

This article analyzes the positive and negative usage of the word "guest" in Uzbek and English proverbs and the importance of hospitality in our nation. The article provides information and examples of how hospitality reflects the unique meaning, manners and spirituality of our society. The text covers the manners, composition, traditions and reception of guests.

Kalit so'zlar: mehmondo'stlik, xalq odatlar, mehmonga tayyorgarlik, mehmonlik mezbonlik, xalq madaniyati odob-axloq, munosabatlar, hurmat.

Ключевые слова: гостеприимство, народные обычаи, подготовка к приему гостя, прием гостей, народная культура, манеры, отношения, уважение

Key words: hospitality, folk customs, preparation for a guest, hosting hospitality, folk culture manners, relationships, respect.

KIRISH

Azal azaldan o‘zbek xalqimiz bag‘rikeng, mehmondo‘st xalq sifatida tanilgan xalq hisoblanadi. Hatto, tanimagan insonini ham uyida bir piyola choy ichishga taklif qiluvchi xalqimiz, alohida mehmon kutish uchun qancha tayyorgarlik ko‘rishi sir emas.

Aynan mehmon atamasiga shunday ta‘rif berish mumkin: mehmon – o‘zga xonadon, mahalla, yurtga samimiy rishtalarni bog‘lash, ezgu niyat va ishlarni amalga oshirish maqsadida tashrif buyuruvchi kishi yoki kishilarni ifodalovchi tushuncha. Mehmon kelishini xalqimiz ezgulik, yaxshilik ramzi deb hisoblaydi. Ma‘lumki, har qanday jamiyatda yashayotgan kishilar bir-birlari bilan moddiy va ma‘naviy munosabatlarga kirishadi. Ma‘naviy aloqalarning bir qirrasini mehmon-mezbonlik munosabatlari tashkil etadi. Odamlarning bir-biri bilan bordi-keldi qilishi, muloqotda bo‘lishi, bir-biriga mehr-oqibat, muruvvat ko‘rsatishi, mehmonlik va mezbonlik aloqalarini bog‘lashlari insoniy fazilat hisoblanadi. Mehmondo‘stlik o‘zbek xalqining ming yillar mobaynida

tarkib topib, tajribasidan o'tib barchaga manzur bo'lgan progressiv va demokratik xarakterdagi an'anasi. Mehmon kutish yuksak odob, axloq, nafasat, umuman olganda, ma'naviyat maktabi hisoblanadi. Mehmondo'stlik orqali do'stlik, o'rtoqlik, odamgarchilik, insonparvarlik tuyg'ulari shakllantiriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mehmondorchilik odobi (qoidalari) – insonlarning yuksak insoniy va samimiy fazilatlariga asosiga qurilgan mehmonga borish va mehmon kutish borasidagi o'zaro muloqoti va munosabatlarida amal qilinadigan odob-axloq talablari, muayyan tartib-qoida va udumlarni ifodalaydigan tushuncha. Mehmondorchilik odobi xalq turmush tarzining g'oyatda nozik, yuksak madaniyati va ma'naviy qadriyati hisoblanadi. Mehmondorchilik odobini bilish, unga amal qilish ma'naviyatlilik belgisidir. Xalqimizga xos mehmondorchilikda qaysi uyga mehmon kelsa, darhol dasturxon yozilib, non ushatiladi. Mehmondorchilik odobi borasida har bir mintaqaning o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud. Farg'ona vodiysi va Samarqandda mehmonga, dastavval, issiq ko'k choy beriladi. Toshkentda esa xushbo'y familchoy damlash odat tusiga kirgan. Kelgan mehmonga darhol qatq taklif etish yoki nonushtasiga albatta qatq berish Namanganda yaxshi odat tusini olgan. Surxondaryoliklarga mehmonga borilsa, xushbo'y ko'k choy bilan birga archa o'tinida pishirilgan tandir kabob keltirilib, mehmon hurmati joyiga qo'yiladi. Xorazmliklar mehmonni maxsus tayyorlangan palov bilan siylaydilar. Qoraqalpoqlarning baliq kabobi bilan kulchatoyini yegan mehmon u yoqdan yaxshi taassurotlar bilan qaytadi. Farg'ona va Andijonda mehmon kelgan xonadonga qo'shnilar hurmat yuzasidan dasturxon chiqaradilar. Mehmonning muhimi va nomuhimi, kattasi yoki kichigi bo'lmaydi. Mehmonga sarpo kiydirish odatining ikki ma'nosi bor. Biri – o'zining yaqin kishisiga, qarindoshiga sarpo kiydirganda uzoqlashmaslik, begonalashmaslik, hamjihatlik istagi bildiriladi. Ikkinchisi – begonaga sarpo kiydirish u bilan do'stlashganlik, qarindoshga aylanganlik yoki qadrdon bo'lib qolganlikning ramziy ifodasi hisoblanadi. Shu sabab xorijdan kelib, el-yurt mehmoni bo'lgan kishilarga ham milliy ust-bosh kiydirish an'anaga aylanib ketgan.

Shuningdek, "mehmon" atamasi o'zbek xalqining chuqur ma'noli maqollarida ham ko'p uchraydi. Asosan, o'zbek xalqi o'gzaki lug'atida "mehmon" so'zi ijobiy ma'noni anglatib keluvchi maqollarni uchratishimiz mumkin. Shuning o'zidan ham xalqimiz uchun mehmon kutish-qanchalik sevimli mashg'ulot ekanini anglab olishimiz mumkin:

1. Mehmon kelsa, pastga tush,
Palov bermoq ahdga tush.
2. Mehmon kelgan uyning chiro'gi ravshan.
3. Mehmon-atoyi Xudo.
4. Mehmon-otangdan ulug' va hokazolar.

Yuqoridagi maqollar mazmunidan ham shuni anglash mumkinki, mehmonni ulug'lash hatto otadan ulug'lik darajasiga olib chiqiladi. Yoki boshqa maqolda ko'rganimizdek, mehmon o'z rizqi bilan uyga kelishi haqida so'z borishi, bu mezbonga qaysidir ma'noda mehmon o'z og'riligini tushirmasligining yaqqol misolidir.

Xuddi shu kabi, ingliz tilidagi maqollarda mehmon haqida ko'plab ijobiy fikrlar keltiriladi. Jumladan:

1. Guests bring joy and blessing (This proverb emphasizes the positive impact of guests, suggesting that their presence brings happiness and good fortune to the host). Tarjima: mehmon o'zi bilan shodlik va marhamat olib keladi.

2. A guest is a gift from God (This proverb conveys the idea that hosting a guest is a special blessing, and it encourages hospitality and kindness towards visitors). Tarjima: mehmon-atoyi Xudo.

3. Hospitality is the key to good friendships (This proverb highlights the importance of hospitality in building strong and meaningful relationships with guests, as it fosters goodwill and mutual respect). Tarjima: mehmondo'stlik-do'stlikning kaliti.

4. Welcoming guests is like welcoming happiness into your home (This proverb conveys the notion that hosting guests brings joy and contentment, enriching the lives of both the host and the visitor). Tarjima: mehmon kutish-uyga baxt kiritish.

Ko'rib turganimizdek ingliz xalqi ham mehmon kutish va mehmondo'stlik haqida maqollarida ham iliq fikrlarni keltiradi(xuddi, o'zbek tilidagi maqollar singari).

Bundan tashqari, ko'p maqollar tarjima qilinganda ma'no jihatdan o'zbek tilidagi maqollarga o'xshash ekanini ko'rishimiz mumkin. Masalan:

“A guest is a gift from God”-“Mehmon-atoyi Xudo”.

Ammo shu o'rinda ta'kidlash kerakki, har ikki tilda ham ba'zi maqollarda salbiy ma'no anglatuvchi fikrlar ham mavjud. Ya'ni, mehmonga kelgan insonning yomon xulqi, o'zini nojo'ya tutishi yoki bir uyda keragidan ko'proq qolib ketishi kabi salbiy illatlar qoralanadi va bu orqali mehmonga borish odobi ham qaysidir ma'noda shakllantiriladi. Demak shu o'rinda “Odobni odobsizdan o'rgan” maqoliga amal qilinsa, ajab emas. Buning isbotini quyidagi maqollarda har ikki tilda ko'rib chiqaylik:

1. Oyda kelganga-oyoq,
Kunda kelganga-tayoq.
2. Chaqirilmagan mehmon-sariq itdan yomon.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, mehmonga borish, begona uyda tunab qolishning ham o'z odobi bor. Albatta, doim kulib turgan, yaxshi muomala qilgan mezbanning ham har kuni mehmon kutishga imkoniyati, vaqti bo'lmasligi mumkin. Uning ham shaxsiy hayoti, rejalarini keladigan mehmon albatta inobatga olishi lozim. Shu orqali mehmon keyingi tashrifi uchun ham o'z hurmatini saqlab qolishi mumkin, bundan tashqari, boshqaga ham malol kelmaydi. Yoki, mehmonga borgandan so'ng zarurat bo'lmasa va albatta imkoni bo'lsa, tezro ketish taraddudini ko'rish kerak. Sababi hechqayer o'z uyimizga teng kelmaydi, mezbonda ham har xil vaziyat va sharoit bo'lishi mumkun. Bejizga dono xalqimiz: “Mehmonning izzati uch kun” deb aytmagan. Buyerda uch soni taxminan olingan, iloji bo'lsa hurmati borida mezbonga rahmat aytib, mehmon o'z safarini yakunlashi kerak.

Endi esa, inglizlar bu borada o'z maqollari orqali fikrlarni ilgari surdi ekan, tahlilini ko'ramiz:

1. Guests, like fish, begin to smell after three days. (This proverb suggests that guests should not overstay their welcome, as their presence can become burdensome over time). Tarjima: uch kundan ortiq yotib qolgan mehmon go'yoki yomon hid taratuvchi baliqdek.

2. A guest who breaks something in the house is not forgotten (This proverb underscores the importance of being mindful and respectful as a guest, as one's actions can leave a lasting impression). Tarjima: uyda nazrsa sindirgan mehmon-hechqachon unutilmaydi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Ingliz xalqida ham mehmonning bir uyda keragidan ko'proq qolib ketishi, ijobiy qabul qilinmayapti. Ularda ham me'yorni bilishga urg'u berilgan. Ikkinchi maqolda esa, boshqa uyga borganda ehtiyotkor bo'lish kerakligi, o'zini tartibsiz tutmaslik kerakligi haqida so'z boradi. Ya'ni mehmonning ehtiyotkorsizligi oqibati mezbanning biror buyumiga zarar yetsa, bu narsaning unutilishi qiyin bo'lishi mumkinligi, yoki umuman unutilmasligi haqida ogohlantiriladi.

Shunday ekan, boshqa xonadonga ketayotganimizda yoki ularnikida mehmon bo'layotganimizda, umumiy odob-axloq qoidalarini yana bir bor eslab va unga amal qilsak, bundan tashqari farzandlarga yoki o'zimizdan kichik bo'lgan uka-singillarimizga eslatsak nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Mezbanning ham bizdek odobli mehmonlardan ko'ngli to'ladi, va keyingi safar bizni yana mehmon qilish unga malol kelmaydi, deb o'ylayman.

Shu o'rinda yana bir muhim jihat mavjud, ya'ni odobni faqat mehmon emas, mezbon ham ko'rsatishi kerak bo'ladi. Sababi, uzoq-yaqindan uni yo'qlash uchun kelgan mehmonni munosib kutib olish, unga hurmat ko'rsatish ham o'ziga yarasha ma'suliyat va sabr talab etadi. Dono xalqimiz bu borada ham o'z nutqida maqollar ishlatadi:

1. Mehmon-izzatda,
Mezbon-xizmatda.
2. Mehmonning oldida mushugingni “pisht” dema.
3. Ochiq yuz-oshdan shirin.
4. Shirin choying bo'lmasa,

Shirin tiling bo'lsin.

Aytib o'tilganidek uyiga mehmon kelgan kishi ham o'zining samimiyati orqali kelgan insonga ijobiy ta'sir ko'rsatishi lozim.

Ba'zida kuzatilishi mumkin, kimdir mehmon oldida farzandiga qo'pol so'zlar aytadi, yoki kayfiyati yomonligini oshkora ko'rsatib, mehmonning kelganidan mamnun emasligini bildiradi. Bu bilan esa kelgan mehmonni noqulay ahvolsa solib qo'yishi, uni keyingi safar bu xonadondan uzoqlashtirishi mumkin. Natijada, oradan qarindosh-urug'chilik, do'st-birodarlik aloqalari uziladi va inson yakkalanib qolishi mumkin. Axir, "Inson-inson bilan tirik", deb bejizga aytilmaydi-ku!

Bundan tashqari, mehmon kutayotganda mezbon, nafaqat dastuxonni maromidaligini, balki, uying tozaligi, o'zining ko'rinishi, idishlarni did bilan joylashtirilganligiga ham e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu orqali keladigan mehmonga uni kutishdan mamnun ekanligi va vaqt ajratib alohida tayyorgarlik ko'rganligini ifoda etadi. Bundan qaysi mehmonni bahri-dili yayramaydi deysiz?!

Ovqatlanish jarayoni ham o'ziga xos qoidalarni o'z ichiga oladi. Iloji boricha mezbon sinchkov bo'lib, mehmon ovqatlanish tezligiga qarab ovqatlangani ma'qul, sababi tez tugatib qo'ysa, mehmon ham hijolat bo'lib ovqatga to'ymay turib, taomlanishni to'xtatishi mumkin. Mehmonning oldida bo'shagan idishlar va po'choqlarni qoldirmaslik, bundan tez-tez boxabar bo'lib turish ham mezbonning go'zal xulqiga kiradi.

Shu o'rinda ingliz tilidagi maqolga e'tibor qaratsak:

"A pretty woman is a woman who shows hospitality to the guest". Tarjima: Yoqimli ayol-mehmonga bag'rikenglik qilgan ayoldir.

Ko'rib turibmizki, garchi geografik jihatdan uzoq, madaniyat jihatdan biz o'zbeklardan ancha farq qiluvchi Yevropa xalqi ham, mehmonlarga bo'lgan munosabatni faqat ijobiy bo'lishi tarafdori ekan.

XULOSA

Shuni aytish mumkinki, biz jamiyatda yashashimiz munosabatlarni to'g'ri olib borishimizga bog'liq. Shu o'rinda, azaliy qadriyatimizga aylanib ulgurgan mehmonga borish va mehmon kutish odobimizga to'g'ri rioya qilish orqali jamiyatda ham ijtimoiy aloqalarimizni hamda o'z hurmatimizni saqlab turishimiz mumkin. Buni o'zbek hamda ingliz xalqining maqollarida ham yaqqol ko'rsa bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Kobiliva, N., Shayxislomov, N., & Raimova, M. (2021) Chet tili va o'zbek parameologik birliklarining siyosiy-semantik tahlili.
- 2.T.Mirzayev O'zbek xalq maqollari - Toshkent, 2016. O'zbek xalq maqollari - 1988.
- 3.<http://library.ziyonet.uz>.O'zME Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
- 4.Turg'unpolatov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li. (2021). O'zbek bolalar adabiyoti. Образование и наука в XXI веке.
5. Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li. (2021). Bugungi yangilanayotgan ta'lim tizimida klaster tushunchasi.
6. Turg'unpolatov Diyorbek Rozmamat o'g'li. (2021). Xalq maqollarida uchraydigan qaram-qarshilik xususiyatining o'ziga xos poetik tamoyillari.